



## Nemis tilida "Zusammenbildung" lar va ularning semantik xususiyatlari

Shermatova Dinora

UrDU 2 kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11560505>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2024 yil

Ma'qullandi: 29-may 2024 yil

Nashr qilindi: 11-iyun 2024 yil

### KEY WORDS

Zusammenbildung, qo'shma so'zlar,  
leksema, morfema

### ABSTRACT

Maqolada nemis tilidagi qo'shma so'zlarning xususiyatlari va ularning gramatik, sintaktik, semantik xususiyatlari misollar yordamida asoslab berilgan.

Inson hayotining barcha sohalaridagi olamshumul muvafaqqiyatlarini tilda va u orqali ifodalash uchun dunyo tillari lug'at tizimining keskin o'zgarishi, yangi- yangi til birliklarining yasashini taqozo qilayapti. Zero bashariyat o'z aqli va zakovati bilan qilgan kashfiyotlari, yasagan ixtirolari, anglagan haligacha notanish hodisalari nomlanib borishi zarur. Buning uchun esa hali uchramagan so'zlarning yasalishi, termin va atamalarning paydo bo'lishi kundalik zaruratga aylanadi. Tilshunoslikning deyarli barcha sohalarida yangi tadqiqotlar olib borildi va fanga yangi atamalar kiritila boshlandi, xususan Zusammenbildung atamasi ham 1965 yilda W.Henzen, H. Pauls tomonidan fanga kiritilgan<sup>1</sup> Zusammenbildung G'arbiy german tillaridagi nisbatan mahsuldor so'z yasash turi bo'lib, so'zlarni hosil qilishning nisbatan samarali usuli sifatida tushuniladi. Zusammenbildung kompozitsiya va hosila o'rtasidagi chegarada yotadi. Bu yangi so'z birligi bo'lib, faqat sintaktik bog'lovchi bo'lgan va hali birikma sifatida tushunilmagan so'zlar hosila so'zlarning asosini tashkil etganda hosil bo'ladi.<sup>2</sup> Masalan nemis tilidagi, *Frühaufsteher = früh aufstehen (erta uyg'onuvchi)*

*Gesetzgebung = Gesetze geben (Qonun chiqaruvchi)*

*Augenfällig = in die Augen fallen (ko'zni qamashtiruvchi)* kabi.

Qo'shma so'zlar ya'ni Zusammenbildunglar nemis tilida katta ahamiyatga ega. Odamlar aslida til o'rganmaydilar, aksincha, ular tilda ijodkor bo'lishni o'rganadilar. So'z yasash vositalari yangi so'zlarni yaratishda juda yordam beradi, qo'shma so'zlar lingvistik tizimning bir qismidir.

Qo'shma so'zning so'z birikmasidan farqi shundaki, qo'shma so'zning komponentlari morfema, so'z birikmasining komponentlari esa so'z bo'ladi. Shu sababli qo'shma so'zning

<sup>1</sup> H.Glück Metzler Lexikon Sprache 1993, 708

<sup>2</sup> Lutz Götze, Ernest Hess-Lüttich: Knaurs Grammatik der deutschen Sprache, hrsg. vom Lexikographischen Institut, München 1992, S. 295.

komponentlari yaxlitligicha bir leksik ma'no ifodalaydi va komponentlari o'rtasida sintaktik aloqa bo'lmaydi.

Qo'shma so'zlar ot, sifat, ravish va qisman fe'l turkumida tarqalgan. Ularning komponentlari bir so'z turkumiga yoki turli so'z turkumlariga mansub bo'lishi mumkin. Qo'shma so'zlar yozilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar
2. Ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar

Yangi so'z odatda alohida sifat yoki xususiyatni bildiradi (*Stroh hut: der Hut, der aus Stroh gefertigt wurde*). Ikkinchi bo'lak asos so'zni, so'zning birinchi qismi esa aniqlovchini hosil qiladi, bu esa asos so'zni batafsilroq tushuntiradi. Ikkala komponentni ham ma'nosini (semantikasini) o'zgartirmasdan turib o'z tartibida almashtirib bo'lmaydi. Gap qismi va rodi asosiy so'z bilan belgilanadi, nemis tilidagi hosil qilingan yangi so'zlarning rodi oxirgi so'zning rodi bilan belgilanadi.

Nutqning deyarli barcha qismlari bir-biri bilan birlashtirilishi mumkin. Fe'l birikmalari odatda ajratiladigan fe'llardir. Ular infinitivda birga yoziladi, lekin shaxsiy shaklda bir-biridan ajratilib yoziladi.

Qo'shma so'z bir butun leksik ma'no - bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanish - grammatik strukturasi ham yaxlitligi, fonetik butunlik bilan xarakterlanadi: demak, u bir so'zdir, uning komponentlari - qismlari orasida grammatik aloqa yo'q (lekin semantik aloqa bor), u har qanday so'z qo'shilmasida - gapda, so'z birikmasida - bir sintaktik funktsiyani bajaradi. Qo'shma so'z, sodda so'zlar kabi, tilning bir birligi bo'lib, undan nutqda har gal tayyor leksik material sifatida foydalanamiz, so'z birikmasi esa bunday tayyor hodisa emas: u nutq jarayonida ma'lum qoidalar asosida hosil qilinadi. So'z birikmasidagi har bir komponent, mustaqil so'z o'zaro grammatik aloqaga kirishgan bo'ladi, demak, bu sintaktik hodisadir.

Tarkibi asosan yangi ot va sifatlarni, balki boshqa gap qismlarini ham yaratadi. Asosan aniqlovchi birikma turkumiga kiruvchi otlar, ularning aniqlovchi so'zi asosiy urg'uni olib boradi va quyidagi gap bo'laklari sifatida namoyon bo'lishi mumkin:

- Substantiv (*e Eisenbahn, e Mutterliebe, s Ritterspiel*)
- Adjektiv (*e Hochschule, e Großstadt, s Fernstudium*)
- Verb (*r Fahrplan, r Speisesaal, e Schreibmaschine*)
- nichtflektierbare Wortarten (*e Selbsthilfe, e Innenbeleuchtung, r Nichtraucher, s Ausland*)

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki nemis tilida qo'shma so'zlar tilning lug'at boyligini boyitishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. H.Glück Metzler Lexikon Sprache 1993, 708
2. Lutz Götze, Ernest Hess-Lüttich: Knaurs Grammatik der deutschen Sprache, hrsg. Vom Lexikographischen Institut, München 1992, S. 295.
3. Drosdowski, Gunther (1984): Duden, Die Grammatik, S. 440
4. Romer, Christine/ Matzke, Brigitte (2005): Lexikologie des Deutschen. Eine Einführung, Tübingen, S. 73